

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
INSTITUTI

XIToySHUNOSLIK FAKULTETI

XIToy TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

“Xitoy tili” fanidan

KURS ISHI

Mavzu: “ Xitoy tilida o‘zlashma so‘zlar ”

Bajardi : Qayumov Javohirbek

Ilmiy rahbar : F.f.n., dotsent Ziyamuhamedov Jasur

Toshkent – 2016

Mundarija

Kirish.....	3-6
Asosiy qism.....	7-23
1.Fonetik o‘zlashtirmalar.....	7-11
2.Semantik oz‘lashtirmalar (strukturaviy kalkalar va etimologik kalkalar).....	11-18
3.Fonetik – semantik o‘zlashtirmalar.....	18-21
4.Ikkilamchi o‘zlashtirmalar.....	21
5. Xitoy tilida o‘zlashgan affikslar.....	22-23
Umumiy xulosalar.....	24-25
Foydalanilgan adabiyotlar.....	26

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilikga erishgach siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy, ma’naviy – ma’rifiy, sohalarda turli o‘zgarishlar, yangiliklar ko‘zga tashlana boshlanadi. Respublikamiz taraqqiyoti kun sayin yuqori pog‘nalarga ko‘tarilib, o‘z madaniyati, tili, urf-odatlarini biz yoshlarning ilmga bo‘lgan salohiyati bilan dunyo sathlarida samarali foydalanilgan holda dunyo mamlakatlarini o‘rganish, ularning dini urf – odatlari, madaniyati, tilini bilish zarurdir.¹

So‘ngi yillarda, O‘zbekiston va XXR munosabatlarining har tarafлама rivojlanib borayotganligi tomonlar uchun mamnuniyat bag‘ishlashi tabiiy, albatta. Ushbu ma’noda aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda Xitoy tilining yangi qirralarini o‘rganish muaommolari o‘zining sifat darajasiga ko‘tarildi.

Masalan, yaqin yillargacha O‘zbekiston xitoyshunosligida faqat Xitoy tili va adabiyoti, tarixini o‘rganish keng ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, bugunga kelib esa xitoyning turli sohasiga oid sinxron tarjimalarni amalga oshirishga bo‘lgan qiziqish jiddiy oshdi. Zero, Xitoy bilan bog‘liq kechayotgan jarayonlarni kuzatar ekanmiz, siyosiy – ijtimoiy munosabatlar chuqurlashgan sari, xitoyshunoslikning siyosiy mavzuga oid jabhalarni tadqiq etish masalalari anchayin kengaydi. Albatta, O‘zbekistonda XXRning ushbu sohalarini o‘rganish masalalari o‘xining mantiqiy mazmuniga ega. Birinchidan, XXRning islohotlari sabab siyosiy hayotida ma’lum o‘zgarishlar sodir bo‘moqda. Ikkinchidan, O‘zbekistonning o‘zida ham Xitoyning siyosiy – huquqiy jabhalarini o‘rganishga e’tibor yanada oshdi. Uchinchidan, dunyoning globallashuv davri davrlarlararo axborot almashuvi kuchaydi. To‘rtinchidan, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida O‘zbekistonning a’zo davlatlar sifatida siyosiy tarjima bobida tarjimon mutaxassis kadrlarga ehtiyoji ortib borayotganligini ta’kidlash lozim. Ushbu fikrlar xitoy tili siyosiy leksikasida ko‘plab yangi mologizmlarning paydo bo‘lganidan dalolat beradi. Masalan, A.Semenas so‘nggi paytlarda xitoy tilida mingdan ortiq yangi neologizmlarni paydo bo‘lganligi haqidagi ma’lumotni keltirib o‘tadi.

Xitoy tilidagi o‘zlashma so‘zlar Yevropa tillari bilan solishtirganda ozchilikni tashkil etadi. Buning barchasi hozirgi kunda yangi texnologiyalar va tashqi dunyoning ochilishi bilan bog‘liq. Shuni aytish kerakki, bunday ixtirolar orqali

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Toshkent., 2010. 10-b.

oʻzlashtirmalarning soni kun sayin ortib bormoqda. Oʻzlashtirma soʻzlar yoki boshqacha qilib aytganda oʻzga tildan oʻzlashtirmalar xitoy tilida 借词 **Jie ci** yoki 外来词 **Wai lai ci** (soʻzma soʻz – tashqaridan kelgan soʻzlar) deb muvofiq ravishda ataladi. Oʻzlashtirma leksika – bu xalqlarning lingivistik aloqalarning, til tomonidan oʻzaro aloqadorligining koʻrinishlaridan biridir.

Oʻzlashtirmalar (soʻz va nominativ soʻz birikmalar) odatda moddiy va maʼnaviy turmushning predmet va hodisalarini belgilab beradi. Kategorial mansublik nuqtayi nazaridan oʻzlashtirmalarning aksariyati ot soʻz turkumiga toʻgʻri keladi. Feʼl, sifat va ravishga kelsak, ularning tarkibida oʻzga til leksikasi nisbatan kam.

Har xil turdagi oʻzlashma soʻzlar xitoy tilining qadim davriga borib taqaladi. Turli millatlarning birlashuvi, madaniyat almashinuvi natijasida kelib chiqadi. Oʻz oʻrnida mazkur xalqlar hayotida yangidan-yangi soʻzlar va tushunchalar paydo boʻla boshlaydi. Shu bilan birga, hayron qolarli jihati yoʻqki, Xitoy tili chet el oʻzlashma soʻzlari , aynan, Yaponiya, Osiyo, Hindiston va oz miqdorda Yevropa tillaridan kirib kelgan. Oʻzlashma soʻzlar xitoy tilida qadimdan paydo boʻlgan boʻlib, iyerogliflarga qoʻshimcha kalit soʻz qoʻshish orqali qabul qilingan va soʻzlar hamshu tariqa koʻpaya borgan. Miloddan avvalgi II asrda Han davridagi imperator U Dinning farmoni bilan Chjan Syan Gʻarbgʻa tomon diplomatik aloqalar yuzasidan safarga chiqadi. Uning chet davlatlarga tashrifi Xitoy va unga qoʻshni mamlakatlarning eshiklari savdo va madaniy almashinuvi uchun ochiladi. Yangi tovarlar Xitoy hududida ishlab chiqara boshlandi. Shu bilan birga, mazkur atash masalasi Xitoy olimlarining oldida turgan asosiy masalalaridan biri edi. Oldiniga Xitoy olimlari chet el buyumlarining nomlarini chet el nomlari singari nomlariga urinib koʻrishadi. Ammo , tillardagi tafovutlar bunday urinishlarni inkor etadi, natija kuchli darajada yakunlanmaydi.

Boshqa tillaridan leksik oʻzlashtirmalarni oʻzlashtirish uslubiga kura 3ta turga boʻlish mumkin : **fonetik** – 音译 **yin yi** , **semantik** – 意义 **yi yi** , **fonetik – semantik** – 音译加意义 **yin yi jia yi yi** (fonetik oʻzlashma + xitoy tili morfemasi yoki xitoy tili morfemasi + fonetik oʻzlashma) . Oʻzga til oʻzlashtirmalar tasnifida **ikkilamchi oʻzlashtirma** deb nomlanganlar alohida turadi.

Bu o'zlashtirma so'zlarni o'zbek o'quvchi va talabalarga tushuntirish, ular haqida tushuncha va bilim berish hozirgi kunda dolzarb masala va vazifalardan biri. Chunki bu haqida prezident qarorlarida ham ko'rish mumkin ya'ni chet tillarini o'qitish, ularni o'rgatish va amalda qo'llash zamon talablaridan biridir. Quyida qarorlardan namunalar keltirib o'tamiz:

O'zbekiston Respublikasining tizimi quyidagilardan iborat :

- Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari ;
- Ta'lim tizimi ishlashi va rivojlanishi uchun kerakli tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy – pedagogik tashkilotlar ;
- Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari shuningdek, ular boshqaruvi ostidagi korxonalar, muassasa va tashkilotlar;
- Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi ostidagi korxonalar, muassasa va tashkilotlar;

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi yagona va yaxlitdir.

Qarorda aytiladiki :

- Belgilab qo'yilsinki, 2013/2014 o'quv yilidan boshlab respublikaning barcha hududida chet tillarini , asosan , ingliz tilini o'rganish umumta'lim maktablarining 1-sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, 2-sinfdan boshlab esa alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan bosqichma bosqich boshlanadi;
- Oiliy o'quv yurtlari ayrim maxsus fanlarni , xususan , texnik va xalqaro mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish chet tillarida olib boriladi;
- Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari va o'qituvchilari chet tillari bo'yicha darsliklar va o'quv-uslubiy komplekslar bilan ta'minlash, ularni belgilangan muddatlarga rioya etilgan holda qayta nashr etish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg'armasining aylanma mablag'lari hisobidan bepul amalga oshiriladi;

Xitoy tilida o‘zlashgan siyosiy atamalar taxminiy hisob kitoblarga ko‘ra 5 – 10 foizni tashkil qilsa ham katta ko‘rsatkich. Xitoy tiliga oid xorijiy tilardan o‘zlashgan siyosiy atamalar asosan , shaxs va ta’limotlarga taalluqlidir.

Umuman olganda XX asr 80 – yillar oxirlariga kelib, Xitoy atamushoslik fanida siyosiy , ayniqsa , huquqiy atamalarni qayta ishlab chiqishga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi bilan tasniflash mumkin. Shunday ekan, O‘zbek xitoyshunosligida xitoyning siyosiy tarjima bilan bog‘liq faoliyatini jonlashtirish masalasi amaliy jihadan muhim jabha hisoblanadi.

ASOSIY QISM.

Fonetik o‘zlashmalar

Fonetik o‘zlashmalar xorijiy so‘zning tashqi shakli, tovushli ko‘rinishini aks etiladi. Xitoy tili fonetik tuzilmasining xususiyatlari o‘zga til leksikasini o‘zlashtirish uchun ma‘lum qiyinchiliklarni yaratadi. Biroq I.D.Kleninning fikriga qo‘shilish lozim, uning fikricha “xitoy tilida tovush o‘zlashtirmalarini kamligi uning yozuvning iyeroglifik harakteriga, alohida bo‘g‘inlarni ma‘lum ma‘nolarni mustahkamlanishiga bog‘liq. O‘zgacha qilib aytganda, balki ma‘no birligidir.” I.D.Klenin iyerogliflarni tovushli o‘zlashtirmalarni yozib olish uchun ishlatilishi u yoki bu darajada o‘zga til muhitida paydo bo‘lgan atamani aniq ichki asosini yo‘qotilishiga olib keladi, deb yozadi. Buning natijasida u tushunish, yodda tutish va hattoki talaffuz qilish uchun qiyin bo‘lib qoladi.

Va, haqiqatda ham, agar xitoy tilida yozuvda iyeroglif bilan belgilangan har bir bo‘g‘in ma‘noga ega bo‘lsa, fonetik o‘zlashtirmani o‘qiganda mazkur o‘zlashtirmalarni ma‘nosini to‘g‘ri tushunishga halaqit beruvchi kerak bo‘lmagan semantik assotsiatsiyalar paydo bo‘ladi. Xitoyliklar ming yillar davomida ideografik yozuvdan foydalangan xalq sifatida semantik o‘zlashtirmalarni afzal hisoblaydi.

Xitoy tilida fonetik o‘zlashtirmalar soni unchalik ko‘p emas. Sanskritdan 200ga yaqin so‘z o‘zlashtirilgan. Tibet, manjur, mug‘ul va g‘arbiy tillardan umuman olganda xitoy tiliga 900ga yaqin so‘zlar o‘zlashtirilgan.

O‘zga til so‘zlarini o‘zlashtirish jarayonida xitoy tili o‘ziga xos bo‘lmagan tovushlarni, o‘zga fonetik xususiyatlari bartaraf etib, bu so‘zlarni o‘z tovush normalariga moslashtiradi. Tovushli o‘zlashtirish, fonetik moslashuv (adaptatsiya) darajasi turlicha bo‘lishi mumkin, ya‘ni : to‘liq, to‘liqsiz, qisman.

Sanskritdan o‘zlashtirilgan va xitoy tilida ko‘plab asrlar davomida qo‘llanayotgan bir nechta so‘zlarni ko‘rib chiqamiz. Bu ilk o‘zlashtirma deb nomlanuvchi o‘zlashtirmalar.

佛 *Fo* – budda ; 菩薩 *pusa* – (*putisaduo*) – bodisatva, xudo, iloh ; 罗汉 *luohan* 阿罗汉 (*aluohan*) - *alohan* (*buddaviy iloh*) ; 壁球 *biqu* – bonza (*buddaviy rohi*)

; 刹那 *chana* – lahza ; 玛瑙 *manao* – agat ; 薄利 *boli* – oyna ; 茉莉 *moli* – jasmin ; 没药 *moyao* – mirra (*xushbo'y yelim (smola)*) so'zi arab tilidan olingan.

葡萄 *Putao* – uzum so'zi Han sulolasi davrida hozirgi Farg'ona vodiysi hududidan xitoy tiliga kirib kelgan.

Xitoy tiliga kechroq davrda kirib kelgan bir nechta fonetik o'zlashtirmalarni ko'rsatamiz. Ularni ilk o'zlashtirmalardan farqli ravishda odatda *zamonaviy* o'zlashtirma deb atashadi.

苏伟 *Suwei*,– sovet, sovetlarga oid; 喀秋莎 *kaqiusha* – katyusha (gvardiya minomyoti), 马达 *mada* – mator; 雷达 *leida* – radar; 托拉斯 *tuolasi* – trest, 图腾 *tuteng* – totem, bud; 木乃伊 *munaiyi* – mumiya; 阿米巴 *amiba* – amyoba; 瓦斯 *wasi* – gaz; 吗啡 *mafei* – morfiy; 海洛因 *hailuoyin* – heroin; 阿司匹林 *asipilin* – aspirin; 凡士林 *fanshilin* – vazilin; 思路分 *silufen* – selofan; 苏打 *suda* – soda; 萨拉 *sala* – salat, venegred; 咖啡 *kafei* – kofe; 雪茄 *xuejia* – sigara; 杀伐 *shafa*- taxa, divan; 西皮 *xipi* – xippi;

Xitoy tiliga xorijiy pul birliklari nomini berish uchun odatda fonetik o'zlashtirmalardan foydalanadilar.

卢布 *Lubu* – rubl; 隔壁 *gebi* – kopeyka; 绑 *bang* – funt (sterling); 鲜灵 *xianling* –shilling; 马克 *make* – marka; 法郎 *falang* –frank; 里拉 *lila* – lira; 卢比 *lubi* – rupiya; 第纳尔 *dinar* – dinor; 克朗 *kelang* – krona; 胜定 *shengding* – santim;

(美元 *mei yuan* –amerika dollari esa istisno tazrda bo'ladi)

Shuni ham ta'kidlash lozimki, tovush o'zlashtirmalarning eng katta soni maxsus ilmiy-texnik atamashunosligiga to'g'ri keladi. Shunga qaramasdan, maxsus leksikada fonetik o'zlashtirmalar multoq sonlarda ifodalansada, kamtarin o'rinni egallaydi. Masalan, I.D.Kleyninning ma'lumolariga ko'ra: "Xitoy harbiy atamalari" izohli lug'atiga kiritgan 4961 so'z birligidan atigi 40ta atama fonetik o'zlashtirmadir.

Fonetik o'zlashtirmalar haqida so'z yuritganda iyerogliflar xorijiy so'zning fonetik yozuvi bilan bir qatorda uning ma'no va mazmunini bergan holatlarini ham ko'rib chiqish lozim. Bunda semantika so'zning tovush shakli bilan uyg'unlashadi.

Xitoy tilida mazkur turdagi soʻzlarning soni unchalik koʻp emas. Quyidagi bir nechta misollar bilan cheklanib qolamiz :

模特儿 *Moter* – Model (namuna + alohida + suffeks), 阴德 *yinde* – indeks (tortmoq + olmoq), 绷带 *bengdai* – bint (bogʻlamoq + bogʻich).

Mazkur soʻzlarning fonetik – semantik tabiatini toʻgʻri tushungan holda V.V.Ivanov ular fonetik oʻzlashtirishning turli darajasidagi tovush oʻzlashtirmalari boʻla turib, ularning tashkil qilgan boʻgʻinlarning haqiqiy maʼnosiga muvofiq boʻlgan oʻziga xos maʼnoga ega boʻladi deb, hisoblaydi.

Xitoy tilida fonetik oʻzlashtirmalarni semantik oʻzlashtirmalar bilan siqib chiqarishga trendensiya mavjud.

Masalan, telefon soʻzi avvaliga (aftidan, XXasrning eng boshida Xitoy tiliga 德鲁风 *Delufeng* – fonetik oʻzlashtirma shaklida kirib keldi. Ammo birozdan soʻng, uni kalkalashtirishgan *dianhua* (soʻzma soʻz – elektr suhbat) soʻzi siqib chiqaradi.

寅恪 *Yinke* – siyoh va 德谟克拉西 *demokelaxi* kabi fonetik oʻzlashtirmalar bilan ham xuddi shu hodisa boʻldi, ularni oʻrniga 墨水 *moshui* va 民主 *minzhu* kabi semantik oʻzlashtirmalar muvofiq ravishda ishlatila boshladi.

Xitoy tilida mavjud boʻlgan oʻzga tildan oʻzlashtirilgan soʻzlar qatorida mutloq sinonimlar juftligi ham uchraydi. Mazkur hodisa bitta tushuncha ikki tomonlama belgilangan holatda, yaʼni fonetik oʻzlashtirish yoʻli va semantik oʻzlashtirish yoʻli bilan belgilanganida paydo boʻladi.

Fonetik oʻzlashtirmalarning kichik soni ijobiy xususiyatlar, chunki bu xitoy tilining soʻz tarkibini tekis va monolit, yaxlit qiladi, bunda xitoy tili oʻzga boʻlgan va xilma xil unsurlaridan holi boʻladi.

Butun dunyoga mashhur boʻlgan ichimlik brendi ham xitoy tiliga fonetik usul orqali oʻzlashtirilgan. Misol uchun : 可口可乐 *Ke kou ke le* - Koka kola va 百事可乐 *Bai shi ke le* - Pepsi koladir. Lekin bu brend soʻzlarni oʻzlashtirishda ham semantik usuldan foydalanilgan. Chunki koka kola soʻzini soʻzma-soʻz tarjima qilganda “*har bir qultumi xursandchilik*” deb tushuniladi. Pepsi kolani esa “*hamma ish xursandchilikda*” deb tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari kofe, shokolat va salat soʻzlari ham fonetik usulda oʻzlashtirilgan : 咖啡 *ka fei* – kofe, 巧克力 *qiao ke li* – shokolat va 萨拉 *sa la* – salat.

Xitoy tiliga ingliz tilidan oʻzlashtirilgan soʻzlar bir,ikki va uch komponent asosida oʻzlashtiriladi,oʻzlashtirma leksikalar 5ta komponentdan oshmaydi.Koʻp hollarda fonetik usul orqali qisqacha qilib aniq maʼno yetkazib berolmasa,semantik usulda oʻzlashtiriladi :

许 *Xu* – mayka (shirt); 秀 *xiu* – shou (show); 秀克 *xiu ke* – shok (shoc); 可可 *keke* – kakao (cacao); 飞临 *feilin* – film (film); 吉他 *jita* – gitara (guita); 卡路里 *kaluli* –kaloriya (caloria); 卡拉特 *kalate* – karat (carate); 康拜因 *Kangbaiyin* – kambayn (cambain); 迪斯科 *disike* –disko (disco);

Mashhur telefon brendlari va inertnet soʻzlarining koʻp qismi ham fonetik usulda xitoy tiliga kiritilgan.Quyida misollardan keltirib oʻtamiz :

三星 *San xing* – Samsung; 诺基亚 *Nuo ji ya* – Nokia; 索尼 *Suo ni* – Sony; 骨骼 *Gu ge-* google; 伊妹儿 *Yi mei er* – E-mail;

Islom diniga oid boʻlgan soʻzlar ham fonetik usulda oʻzlashtiriladi.Chunki ularni maʼnosi jihatdan oʻzlashtirish ancha mushkuldir.Quyida xitoy tiliga fonetik usul orqali oʻzlashgan leksikalarni koʻrib chiqamiz :

清真其 *Qing zhen qi* - masjid; 古兰经 *gu lan jing* – qurʼon,; 阿拉 *a la* – alloh; 某拉 *mou la* – mulla; 阿里 *a li* –Ali; 哈利法 *ha li fa* – halifa; 伊斯兰 *yi si lan* – Islom; 穆斯林 *Mu si lin* – Musulmon; 逊呢 *xun ne* – sunʼiy; 施压 *shi ya* – shia;

Ayrim chet el mashinalarining nomlari ham xitoy tiliga fonetik usulda oʻzlashtiriladi.Bu usul orqali bir eshitishda chet el mashinalarinig marka nomlarini tushunish chet elliklar uchun yanada oso boʻladi.Quyida fonetik orqali oʻzlashgan bir nechta mashina markalarini keltirib oʻtamiz:

福特 *Fu te* – ford; 奥迪 *ao di* – Audi;雪夫兰 *xue fu lan* – Chevrolet; 法拉利 *fa la li* – Ferrari; 奔驰 *ben chi* – Mesedez – Benz; 堡世界 *bao shi jie* – Porsh; 兰斯莱斯 *lan si lai si* – Rols rose; 别克 *bie ke* – BUICK; 菲亚特 *fei ya te* - Fiat; 显代 *xian dai* – Hyundai; 五十铃 *wu shi ling* – Isuzu; 大于 *da yu* – Daewoo;阿法罗密欧 *a fa luo mi ou* – Alfa – Romeo;

Davlatlarning nomlanishinin ham ko'p qismlari xitoy fonetik usul orqali nomlanadi. Chunki davlatlarning nomini xitoy tiliga o'zlashtirishda semantik usuldan foydalanish kam hollarda qo'llaniladi.

法兰西 *Fa lan xi* – Fransiya; 巴基斯坦 *Ba ji si tan* – Pokiston; 乌兹别克斯坦 *Wu zi bie ke xi tan* – O'zbekiston; 沙特阿拉伯 *Sha te a la bo* – Saudiya Arabistoni; 伊拉克 *Yi la ke* – Iroq; 科威特 *Ke wei te* – Quvayt; 柬埔寨 *Jian pu zhai* – Kambodja; 印度 *Yin du* – Hindiston (Ingliz tilidagi India so'zidan o'zlashgan); 越南 *Yue nan* – Vetnam; 塔吉克斯坦 *Ta je ke si tan* – Tojikiston; 阿富汗 *A fu han* – Afg'oniston; 哈萨克克斯坦 *Ha sa ke si tan* – Qozog'iston; 吉尔吉克斯坦 *Ji er ji si tan* – Qirg'iziston; 马来西亚 *Ma la si ya* – Malayziya; 意大利 *Yi da li* – Italiya; 西巴尼亚 *Xi ba ni ya* – Ispaniya; 斯里兰卡 *Si li lan ka* – Shri – Lanka; 澳大利亚 *Ao da li ya* – Avstraliya;

O'zbek tilidan ham Xitoy tiliga o'zlashma leksika o'tgan. Bu leksika bizlarga latifalar va qiziq hangomalarning bosh qahramoni Afandi so'zidir.

阿凡提 *A fan ti* – Afandi;

Taqlid so'zlar ko'p hollarda xitoy tiliga semantik usulda o'zlashtiriladi, lekin eng universal misollardan biri :

恰恰 *Qia qia* – “cha –cha-cha”

Ko'p tarixiy turk tili va o'zbek tiliga oid shaxslarning va imperiyalarning nomlari ham fonetik usulda o'zlashtiriladi.

奥斯曼地 *Ao si man di* – Usmonlilar; 五路别克 *Wu lu bie ke* – Ulug'bek; 纳崴伊 *Na wai yi* – Navoiy; 秘鲁呢 *Bi lu ne* – Beruniy;

Chet el dori vositasi bo'lmish “*kodein*” 3 usulda xitoy tiliga olib kirilgan. 可低音 *Ke di yin*, 可待因 *ke dai yin*, 可题因 *ke ti yin*. Amidopyrine ikku usulda o'zlashtiriladi : 氨基比林 *An ji bi lin* yoki 按期匹林 *an qi pi lin*.

Semantik o'zlashtirmalar

Bu turdagi o'zlashtirmalar aksariyat hollarda kalka deb nomlanadi, xitoy tiliga o'zga til leksikasining natijasida paydo bo'ladi, ammo bu tarjima o'ziga xosligini ta'kidlash lozim, chunki unda o'zlashtirayotgan tilda yangi so'zlar paydo bo'ladi. “Boshqa tilda mavjud bo'lgan so'zning ta'siri ostida yangi so'zni paydo bo'lish

fakti kalkalashtirishni o'zlashtirishning alohida turi sifatida baholashga imkoniyat beruvchi belgilardan biridir".

Mazkur usul xitoy tilida (yozma, fonetik tizim va so'z mohiyati) tushuntirilayotgan fakt – o'zlashma so'zlarning tarjimasida anglashilayotgan ma'no nafaqat, o'zlashma semantikni fonetikaga o'tishi, balki aksincha bo'lishi ham mumkin. Bunga misol, 德鲁风 *de lu feng* – telefon.

Fonetik va semantik usulda o'zlashtirilgan so'zlar deyalri bir xil ma'noni anglatadi va ekvevalenti bo'lob xizmat qiladi. Misol uchun:

布拉吉 *Bu la ji* va 连衣裙 *lian yi qin* – ko'ylak; 科尔蒙 *ke er meng* va 激素 *ji su* – garmon; 生活质量 *sheng huo zhi liang* va 生活激素 *sheng huo ji su* – yashash erkinligi (quality of life);

Kalkalashtirish xorijiy so'zlarni o'zlashtirishning muhim uslubidir. Fonetik o'zlashtirmalardan farqli ravishda semantik o'zlashtirishlar (kalkalar) xitoy leksik unsurlaridan tashkil qilinadi va shu tufayli o'z tovush va grafik shakli bo'yicha asl xitoy leksikasidan farqlanmaydi. Ular til tizimiga osonlikcha kiradi va nutqda erkin faoliyat yuritadi. Kalkalashtirish xitoy tili uchun so'z tarkibini to'ldirishning soda va oson uslubidir.

O'zga til leksikasini o'zlashtirishning semantik uslubini ustuvor roli zamonaviy xitoy tilida , yuqorida aytilganidek , fonetik o'zlashtirmalarni semantik o'zlashtirmalar bilan almashtirish trendensiya mavjudligi bilan ham tasdiqlanadi.

Bo'g'in tarkibi nuqtai nazaridan semantik o'zlashtirmalar aksariyat hollarda 2 tadan kam bo'lmagan morfemalardan iborat bo'lgan murakkab so'zlardir. Xitoy tilida mavjud bo'lgan kalkalar o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, 2ta turga bo'linadi: strukturaviy (tuzilmalar) kalkalar va etimologik kalkalar.

Strukturaviy kalkalar

Mazkur turdagi kalkalashtirishda xorijiy so'z yoki nominativ so'z birikmasining semantik-morfologik tuzilmasi o'zlashtiriladi, ya'ni boshqacha qilib aytganda, leksik birlikning so'z yasovchi modelini nusxasi olinadi. Strukturaviy kalkalar

tashqi shaklni yoki boshqacha qilib aytganda, o'zga til so'zi (so'z birikmasi) obrazini o'zlashtiradi va uning tuzilmaviy unsurlarini bevosia tarjimasini beradi.

Zamonaviy xitoy tilida srukturaviy kalkalarning leksik birliklarining soni juda katta.

马力 *Ma li* – ot+kuch = ot kuchi, 重水 *zhong shui* – og'ir+suv = og'ir suv, 后卫 *hou wei* – orqada+himoyada = arergard; 动产 *dong chan* – harakat qilimoq+mulk = mol-mulk; 生产力 *sheng chan li* – ishlab chiqarish+kuch = ishlab chiqarish kuchlari;

生产关系 *Sheng chan guan xi* – ishlab chiqarish+munosabatlar = ishlab chiqarish munosabatlari; 电子束 *dian zi shu* – elektron+bog' = elektrtonlar to'plami; 电力最 *dian li zui* – elektron+oqim = elektronlar oqimi; 国际法 *guo ji fa* – xalqaro+huquq = xalqaro huquq; 自由港 *zi you gang* – erkin+port = erkin port; 观点 *guan dian* – qaramoq+nuqta = nuqtai nazar; 世界观 *shi jie guan* – dunyo+qaramoq = dunyoqarash; 五年计划 *wu nian ji hua* – besh yillik+reja = besh yillik reja; 事会注意精彩 *shi hui zhu yi jing cai* – sotsializm+musobaqa = sotsialistik musobaqa; Bu kalakalar ,asosan, atamashunoslik leksikasiga mansub.

Ba'zida (asosan badiiy adabiyot asarlarida) umumqo'llanadigan so'zlarning kalkalashtirish holati uchraydi :

- 1.Xitoycha – U beixtiyor eshikni oldiga bordi, uni ochdi va qaradi.
2. Xitoycha – Man yarim hazil so'radim.

Quyidagi kalkalarda 下意识 *xia yi shi* – ost + ong – beixtiyor (ong osti), 半开玩笑 *ban kai wan xiao* – yarim + hazil qilmoq – yarim hazil. Kalka qilinayotgan birliklarning semantik tuzilmasi aniq aks etilgan.

Xitoy tiliga kirib kelgan yapon so'zlari (yaponizmlar 0 o'zlashtirmalarning alohida turidir. Xitoy iyerogliflarida yozilgan bo'lib, ular o'z tashqi ko'rinishini, so'z yasash tuzilmasi bo'yicha asl xitoy so'zlaridan farqlanmaydilar. Ularni ba'zida 日语汉度 *ri yu han du* – xitoy tilida aytiladigan yapon so'zlar deb ataydilar. Bu so'zlar ikkilamchi o'zlashtirmalardan ham farqlanmaydilar.

Yapon va xitoy manbalari o'zlashtirmalarning mazkur guruhiga quyidagi leksik birliklarni mansub deb hisoblaydilar : 场合 *chang he* – voqea; 立场 *li chang* – mavqei; 场所 *chang suo* – joy; 手续 *shou xu* – tartib; 减息 *jian xi* – stajirovka;

故障 *gu zhang* – shikast; 精奇 *jing qi* – turmoq, jonlanmoq; 取缔 *qu di* – ta'qiq; 临床 *lin chuang* – klinikaga oid;

Mazkur so'zlarda o'zlashtirishda fonetik qobig'I o'zgarganligi sabab, ammo so'z yasash tuzilmasi saqlanganligi uchun ularni tuzilmaviy kalkalar guruhiga kirgizib, semantik o'zlashtirmalar deb hisoblash mumkin.

Etimologik kalkalar

Mazkur turdagi kalkalashtirishda xorijiy so'zning ma'no-mazmuni ochib beriladi. U tushuntirish tarjimasini orqali etimologizatsiyalanadi. Bunda aydo bo'lgan etimologik mazmun o'zga til so'zning mazmuniy uzilmasi ba'zida aks etadi, ba'zida esa aks etmaydi.

Xitoy tili kalkalashtirishning etimologik uslubidan keng foydalanadi, uning yordamida ko'plab yangi so'zlardan yasaydi.

望远镜 *Wang yuan jing* – qaramoq + uzoq + linza = durbin, 拖拉机 *tuolaji* – tortmoq + mashina = traktor, 打字机 *da zi ji* – o'rmoq + belgi + mashina = bosma mashinasi, 收音机 *shou yin ji* – qabul qilmoq + tovush + apparat = priyomnik, 打火机 *da huo ji* – chiqarmoq + olov + apparat = olov yoqqich (зажигалка), 电视机 *dian shi ji* – elektr + qaramoq + apparat = televizor, 汗水五 *han shui wu* – tarkibida bo'lmoq + suv + modda = gidrid, 自来水 *zi lai shui* – o'zi + kelmoq + suv = jo'mrak, 最后通牒 *zui hou tong die* – eng oxirgi + nota + ultimatum;

Chjou Szumo fikricha, ma'no bo'yicha tarjimani xorijiy leksikani xitoy tili idrok etishining eng muhim uslubi deb hisolaydi. Semantik o'zlashtirmalar fonetik o'zlashtirmalardan ko'ra, tejamkor va tushunchalar, chunki ular o'zga til so'zini berish uchun zarur bo'lgan morfemlarning kichik sonidan foydalanadi va tushuntirish tarjimasini berib, ma'nosini anglashni osonlashtiradi. Tushuntirish tarjimasini yo'li bilan yasalgan so'zlarni bu olim o'zga til o'zlashtirmalari deb hisoblanmaydi.

Bu nuqtai nazar Xitoy tilshunoslari orasida keng tarqaldi. Masalan: Gao Szijun va Chjan Inde fikricha, ma'no bo'yicha tarjima - bu o'zlashtirma tushunchalarni belgilash uchun yangi so'zlarni yasashdir. Chjao Ibo ham tarjima shaklida o'zlashtirilgani so'zlarni qat'iy qarab, o'zga til o'zlashtirmalari deb hisoblash noto'g'ri degan fikrni bildiradi. Bu borada quyidagi faktni ham ta'kidlab o'tish

qiziqarlidir: “ Vetnam tilshunoslari ham kalakalashtirishni o’zlashtiris usuli emas, balki yangi so’zlarni yasash uslubi deb hisoblaydilar “ .

Ammo mazkur nuqtayi nazar haddan ziyod to’g’ri va qat’iy ekanligini ham ta’kidlash lozim. U kalkalashtirishning muayyan xususiyatlarini hisobga olmaydi. Faktik til materiali shuni ko’rsatadiki, Xitoy tili strukturaviy va etimologik kalkalrni yaratganda, nafaqat tushuncha, balki (bu ham juda muhim) xorijiy so’zning semantik – morfologik tuzilmasini o’zlashtiradi yoki uning etimologiyasini tiklaydi. Bunda strukturaviy kalkalarda ifodasi kattaroq darajada bo’ladi.

Shu bilan birga, o’zga til o’zlashtirmalariga xitoy tili so’z yasash modellari bo’yicha yasalgan va xorijiy so’zning ma’no ekvivalentini bo’lgan leksik birliklarini mansub deb hisoblash noto’g’ri. Masalan: 政治家 *Zheng zhi jia* – siyosat + ot so’z turkumi suffiksi = siyosatchi, 外加家 *wai jia jia* – tashqi + aloqalar + so’z turkumi suffiksi – diplomant;

Semantik usul orqali xitoy tiliga so’z o’zlashtirish keng tarqalgan usuldir. Chunki ko’p so’zlarni o’zlashtirishda xitoyliklar o’sha buyumning bajaradigan vazifasi, ifodalaydigan ma’nosi, ko’rinishi va qo’llanish usullariga qarab nom berishgan. Semantik usul orqali o’zlashgan so’zlar ham fonetik o’zlashtirish usuli kabi bir necha turlar va ma’nolarga bo’linadi. Quyida endi ko’pkina misollardan keltirib o’tamiz.

Hozirgi har bir davlatning kundalik hayotiga kirib kelayotgan zamonaviy kompyuter texnologiya so’zlari va aloqa vositalarining nomlari semantik usulda xitoy tiliga o’zlashtirilgan.

手机 *Shou ji* – Qo’l telefoni, 电视 *Dian shi* – Televizor, 电脑 *Dian nao* – Kompyuter, 平板电脑 *Ping ban dian nao* – Planshet, 计算机 *Ji suan ji* – Kalkulyator, 苹果 *Ping guo* – I phone (Ayfon), 鼠标 *Shu biao* – Sichqoncha, 软件 *Ruan jian* – fayl, 键盘 *Jian pan* – Klavishi, 游戏机 *You xi ji* – Elektron o’yinlar uchun apparat, 电子信箱 *Dian zi xin xiang* – Elektron quti, 邮件 *You jian* – Pochta, 王位王 *Wang wei wang* – WWW, 机器人 *Ji qi ren* – Robot, 多母体 *Duo mu ti* – Multimedia, 数字统一 *Shu zi tong yi* – digital communication, 软枕 *Ruan zhen* – Faks, 穿件 *Chuan jian* – Software, 激光唱盘 *Ji guang chang pan* – CD/compact disk, 多动画 *Duo dong hua* – Telefon,

Kiyim – kechaklarga tegishli soʻzlarining koʻp qismlari ham semantik usulda xitoy tiliga kiritilgan va bu orqali oʻz leksikasining boyishiga oʻz hissalarini qoʻshishgan.

上衣 *Shang yi* – Pjdjak, 皮肤 *Pi fu* – Charm, 长裤 *Chang ku* – Shim, 大衣 *Da yi* – Palto,

Hozirgi Amerika va Yevropa davlatlarida kirib kelayotgan mahalliy taomlar ham xitoy tiliga semantik usulda oʻzlashtiriladi yaʼni fats foodlarning ingliz tilida bildirgan tarjimai xitoy tilga oʻz holicha qabul qilingan

快餐 *Kuai can* – Fast-food, 热狗 *Re gou* – Hot-dog; 啤酒 *Pi jiu* – Pivo, 口香糖 *Kou xiang tang* – Saqich,

Mashina, aerodromlar va poezdlarning umumiy nomlanishi xitoy tiliga semantik usulda oʻzlashtiriladi. Yaʼnu bu holatda ularning qay tarzda bajarayotgan funksiyalari hisobga olingan.

飞机 *Fei ji* – Samalyot, 机场 *Ji chang* – Aerodrom, 火车 *Huo che* – Poyezd, 公共汽车 *Gong gong qi che* – Avtobus,

Kosmetika va unga tegishli boʻlgan soʻzlarnig ham oʻzlashtirilishi semantik usulda amalga oshiriladi. Bunda soʻzlarni maʼnosini tushunish yaʼnada osonlashadi.

美容 *Mei rong*– Kosmetika, 香水 *Xiang shui* – Atir, 口红 *Kou hong* – Lab buyogʻi, 眉笔 *Mei bi* – Qosh qalami, 干洗 *Gan xi* – Kimyoviy tozalash, 水洗 *Shui xi* – Akva tozalash, 粉底 *Fen di* – Upa,

Mashina markalarining ham ayrim turlari semantik usulda xitoy tiliga kiritilgan. Koʻp hollarda yapon mashina markalarini semantik usulda oʻzlashtirilganini koʻrish mumkin.

冷木 *Leng mu* – Suzuki, 丰田 *Feng tian* – Toyota, 五十铃 *Wu shi ling* – Isuzu, 宝马 *Bao ma* – BMW.

公共汽车 *Gong gong qi che* – avtobus soʻzi 90- yillarda “巴” *Ba shi* – avtobus soʻzidan oʻzlashgan boʻlib, asosan , Tayvan va Shanxay aholisiga xos boʻlib xizmat qilgan. Lekin nutqdagi gʻalazlilik bu soʻzni xitoy tiliga oʻrnashib ketishiga yoʻl qoʻymagan. Shuning uchun hozirgi kunda avtobus soʻzi boʻlib 巴士 *ba shi* emas, balki 公共汽车 *gong gong qi che* soʻzi ishlatiladi.

Lekin bu soʻz orqali yangi maʼnoli xitoycha soʻzlar yaratilgan.

巴士站 *Ba shi zhan* – avtobus bekati;

小巴 *xiao ba* – kichik avtobus;

双层巴士 *shuang ceng ba shi* – ikki qavatli avtobus;

Mikrofon so'zi xitoy tiliga ham fonetik, ham semantik usulda o'zlashtiriladi ya'ni ular bir-biriga sinonimlik vazifasini o'taydi:

扩音器 *Kuo yin qi* – ovozni kuchaytiruvchi vosita;

麦克风 *Mai ke feng* – mikrofon;

Lekin ko'p hollarda fonetik usul orqali xitoy tiliga oz'lashgan mikrofon so'zi xitoy tilida qo'llaniladi:

在麦克风前演说 *Zai mai ke feng qian yan shuo* – Mikrofondan oldida chiqish qildi;

Xitoy tilida siyosiy so'zlar semantik usulda o'zlashtiriladi. Bu orqali ularning berayotgan ma'nosi yanada aniqlashadi.

援助国 *Yuan zhu guo* – Donor davlat. Donor – maxsus yarador va bemorlarga quyish uchun o'z qonini boshqa bemor shaxsga ko'chirib o'tkazish uchun biror a'zsoni beruvchi kishi. Bu yerda “援助 *yuan zhu* ” madad, yordam, ko'mak ma'nolarini bersa, “国 *guo* ” esa davlat ma'nosida kelgan.²

小组讨论 *Xiao zu tao lun* – Guruhli munozara (diskussiya). Biror masalani to'g'ri hal qilish uchun matbuotda yoki ilmiy yig'inlarda o'tkaziladigan erkin ommaviy muhokama, munozara;³ Bu yerda 小组 *Xiao zu* guruh ma'nosini bersa, 讨论 *tao lun* – diskussiya, bahs degan ma'noda keladi.

极端主义 *Ji duan zhu yi* – Ekstrimizm⁴ Siyosatda va mafkurada ashadiy, favqulodda usullar bilan yo'l tutishga, keskin choralar ko'rishga tarafdorlik. Bu yerda 极端 *Ji duan* – so'ngi chora ma'nosini bersa, 主义 *zhu yi* – “-izm” so'z yasovchi bo'lib kelgan.

恐怖主义 *Kong bu zhu yi* – Terrorizm. Terror bilan amalga oshiriladigan siyosat va taktika; siyosiy raqiblarni, muxoliflarni yo'q qilish yoki qo'rqitish, aholi

2,3,4 Saodat Nosirova “Xitoy tilining ijtimoiy – siyosiy va diplomatik terminologiyasi” Toshkent “Yangi asr avlodi” 2011.-90-b.

o'rtasida vahima va tartibsizliklar keltirib chiqarish maqsadidagi zo'ravonlik harakatlari (ta'qib qilish, buzish, garovga olish, qotillik, portlatish va boshqalar); terrorchilik⁵. Bu yerda “恐怖 *kong bu*” terror ma'nosini bersa, “主义 *zhu yi*” esa “-izm” so'z yasovchi qo'shimchasi bo'lib kelgan.

备忘录 *Bei wang lu* – Memorandum.

1. huquqiy. Biror davlatning diplomatik yozishmalar orqali hal qilinadigan masalalar mohiyatini o'z nuqtayi nazaridan batafsil bayon qilib yozgan diplomatik hujjati.

2. Biror masala bo'yicha bildirishnoma, xizmat ma'lumotnomasi.

外交 (*wai jiao*) 照会 *zhao hui* – Nota. Bir davlatning boshqa davlatga yozgan rasmiy diplomatik murojaatnomasi. Diplomatik nota.⁶ Bu yerda 照 *Zhao* – ga binoan ma'nosini bersa, 会 *hui* esa yig'gilish, majlis ma'nosida kelgan.

宣传 *Xuan chuan* – Propaganda qilmoq, targ'ib qilmoq.

1. Muayyan g'oyalar, nazariya va ta'limotlar, qarashlarni ommaga yoyish, tarqatish, tushuntirish; ommaga g'oyaviy ta'sir o'tkazish; targ'ibot.
2. Mafkura va siyosatni targ'ib etishga qaratilgan faoliyat.⁷ Bu yerda “宣 *Xuan*”

e'lon qilmoq ma'nosini bersa, “传 *chuan*” tatbiq etmoq ma'nosida kelgan.

Fonetik – semantik o'zlashtirmalar

Zamonaviy xitoy tilida fonetik va semantik o'zlashtirmalardan tashqari aralash yasalgan birikmalar ham mavjud. Ular uchun o'zga til o'zlashtirmalarning 2 asosiy turning xususiyatlari xos. Bu birikmalarda komponentlardan biri semantik ahamiyatli leksik unsuridir, boshqasi esa u yoki bu darajada o'zlashtirma so'zning sadosini beradi.

Fonetik – semantik o'zlashtirmalarni turli ilmiy ishlarda har xil nomlashadi: yarim kalka, yarim fonetik o'zlashtirma, gibrid so'zlar aralash o'zlashtirmalar.

⁵ “O'zbek tilining izohli lug'ati.” “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. 5 jildi. Toshkent 2006-2008-yil, 4-jild, 76-b.

⁶ “O'zbek tilining izohli lug'ati.” “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. 5 jildi. Toshkent 2006-2008-yil, 3-jild, 62-b.

⁷ “O'zbek tilining izohli lug'ati.” “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. 5 jildi. Toshkent 2006-2008-yil, 3-jild, 313-b.

摩托车 *Mo tuo che* – Motosikl (摩托 *mo tuo* – tovush yozish 车 *che* – arava),
喇嘛教 *la ma jiao* – lamaizm (喇嘛 *La ma* – tovush 教 *jiao* – din), 沙恩主义 *Sha wen zhu yi* – shovinizm (沙文 *sha wen* – tovush yozish, 主义 *zhu yi* – ta’limot), 芭蕾舞 *ba lei wu* – balet (芭蕾 *ba lei* – tovush yozish, 舞 *wu* – raqs), 沙丁鱼 *sha ding yu* – sardine (沙丁 *sha ding* – 鱼, *yu* – baliq), 马丁炉 *ma ding lu* – marten (马丁 *ma ding* - , 炉 *lu* – pechka), 霓虹灯 *ni hong deng* – neon chiroq (霓虹 *ni hong* – tovush yozish, 灯 *deng* – chiroq), 啤酒 *pi jiu* – pivo (啤 *pi* - , 酒 *jiu* – sharob), 常蹲 *chang dun* – uzun tonna (场 *chang* – uzun, 蹲 *dun* – tovush yozish), 毒瓦斯 *du wa si* – zaharli gaz (毒 *du* – zaharli , 瓦斯 *wa si* -), 看彬强 *kan bin qiang* – karabin (看彬 *ka bin* - , 抢 *qiang* – miltiq).

Xitoy tilida o’zlashma so’z yasashni o’ziga xos usullaridan bir bu semantik – fonetik yoki fonetik – semantik usulda yasaladi. Bu usula o’zlashma so’z ikki yoki undab ortiq morfemadan iborat bo’ladi. Bunda morfemalardan biri xitoycha, biri o’zlashma so’z bo’ladi yoki aksincha.

Semantik – fonetik chatishuv usulida xitoy tili morfemasi va fonetik o’zlashmadan semantik – fonetik o’zlashma so’z yasaladi.

Masalan: Eng keng tarqalgan misollardan biri “卡” *ka* iyeroglifi bilan yasalgan so’zlardir. “卡” *ka* so’zi ingliz tilidagi “card” so’zidan olingan bo’lib , uning tajimasi “ qattiq qog’ozdan qilingan kartochka ” degan ma’noni bildiradi. Quyida esa ulardan misollar keltirib o’tamiz.

登记卡 *Deng ji ka* – Registratsiya kartasi,

电话卡 *Dian hua ka* – Telefon kartasi,

生日卡 *Sheng ri ka* – Tug’ilgan kun tabriknoma qog’ozi,

税卡 *Shui ka* – Soliq kartochkasi,

贺年卡 *He nian ka* – Yangi yil tabriknomasi;

“卡” *ka* iyeroglifi “kartochka” degan ma’nodan tashqari, “kasseta, mashina , kaloriya ” degan ma’noni beradi. Bu degani “卡” *ka* elementi boshqa bir xitoycha so’z birlashib, yangi o’zlashma so’z hosil qilinadi.

“卡” *ka* elementi qadimiy “带” *dai* elementi bilan birlashib, “卡带” *ka dai* “magnitafon lentasi joylashgan jajji quticha” degan ma’noni beradi.

“卡” *ka* elementi xitoy tiliga ma’no tashishda yana bir o’zlashma predmetni kashf etadi.

1San lun ka – 3 g’ildirakli mashina;

十轮卡 *shi lun da ka* – 10 g’ildirakli katta mashina

单卡 *Dan ka* – bir kasetalik;

双卡 *shuang ka* – ikki kasetalik;

千卡 *Qian ka* – kilokaloriya,

大卡 *da ka* – katta kaloriya,

小卡 *xiao ka* – kichik kaloriya,

科卡 *ke ka* – gramm-kaloriya;

Fonetik nuqtai nazaridan (fonetik) kalit so’zlar orqali o’zlashishi 吉他 *Ji ta* “ gitara ” so’zi orqali quyidagi yangi ma’nodagi so’zlar yasaladi:

电吉他 *Dian ji ta* – Elekterom gitara,

弹吉他 *Tan ji ta* – Gitara chalish,

用吉他伴唱 *Yong ji ta ban chang* – Gitara jo’rligida kuylash.

Yana bir o’zlashma so’z usullaridan biriga fonetik va semantik usul orqali so’zlarni o’zlashtirish tushuniladi. Bunda fonetik o’zlashayotgan komponent so’zni yanada aniq va qisqa tushunishiga yordam beradi. Bu usul orqali ko’p hollarda oziq-ovqat, spirtli ichimliklar nomi va transport vositalar nomlanadi.

沙丁鱼 *Sha ding yu* – (inglizcha sardine + yu baliq) – sardina;

来福清 *Lai fu qiang* – (inglizcha rifle + qiang vintovka) – qurol;

坦克车 *Tan ke che* – (inglizcha tank + che transport vositasi) – tank;

吉普车 *Ji pu che* – (inglizcha jeep + che transport vositasi) – jip;

堂歌舞 *Tan ge wu* – (inglizcha tango + wu raqs) – tango;

波尔卡舞 *Bo er ka wu* – (inglizcha polka + wu raqs) – polka;

淋巴液 *Lin ba ye* – (inglizcha lymph + ye suyuqlik) – limfa;

马德拉酒 *Ma de la jiu* – (fransuzcha Madeira + jiu vino) – Madera;

伏特加酒 *Fu te jia jiu* – (ruscha aroq + jiu vino) – aroq;

栏目酒 - *lang mu jiu* (inglizcha rum + jiu vino) – rom;

啤酒 *Pi jiu* – (inglizcha beer + jiu vino) – pivo;

Fonetik usul orqali o'zlashgan 巧克力 *Qiao ke li* – Shokolad so'zi o'zidan yangi so'z hosil qilganda, fonetik – semantik usul orqali yasaladi:

巧克力 *Qiao ke li tang* – Shokoladli konfet;

以北巧克力茶 *Yi bei qiao ke li cha* – 1 finjon shokoladli choy;

巧克力蛋糕 *Qiao ke li dan gao* – Shokoladli tort;

Ikkilamchi o'zlashmalar

Xitoy tilida yaponizmlardan tashqari yapon tilidan kelgan, ammo yapon asl so'zlarini emas, balki xorijiy o'zlashtirma so'z bo'lgan so'zlar ham uchraydi. Mazkur holatda o'zga til leksikasining ikkilamchi o'zlashtirilishini kuzatamiz. Shuning uchun mazkur turdagi leksik birliklarni ikkilamchi o'zlashtirmalar deb nomlash mu mumkin.

Bu noyob va qiziqarli hodisaga sabab mazkur so'zlar o'z paytida xitoy tilidan yaponlar olgan va xitoy so'z yasash modellari bo'yicha yasalgan va yozuvda xitoy iyerogliflari bilan aks etiladigan leksik unsurlardan iboratligidir. Mazkur turdagi leksik birikmalar asl xitoy so'zlarida hech qaysi xususiyati bilan farqlanmaydi.

Mazkur toifa leksik o'zlashtirmalari ,asosan, atamashunoslik leksikasiga mansub: 局算 *ju suan* – smeta, 接风 *jie feng* – dibet, 贷方 *dai fang* – kredit, 保险 *bao xian* – sug'urta, 概念 *gai nian* – tushuncha, 判断 *pan duan* – mulohaza, 前提 *qian ti* – asos, postulat, 大熊座 *da xiong zuo* – Katta ayiq (yulduz), 小熊座 *xiao xiong zuo* – Kichik ayiq (yulduz, 积极 *ji ji* – faol, 消极 *xiao ji* – passiv, 仲裁 *zhong cai* – arbitraj, 单数 *dan shu* – qo'shimcha kelishuv yoki shart, 胜利 *sheng li* – frazeologiya, 心理 *xin li* – psixologiya, 伦理 *lun li* – etika, 谈谈 *tan tan* – suhbat, 所得税 *suo de shui* – daromad solig'i;

Xitoy tilida o'zlashgan affikslar

Boshqa davlatlarning madaniyatining ta'siri tufayli xitoy tilida yangi o'zlashma so'zlar paydo bo'la boshladi. Hozirgi kunda butun Xitoyda paydo bo'lgan 中心 *Zhong xin* – “ markaz ” so'zidir.

Hozirgi kunda xitoy o'zlashma affiksli leksikasida boyigan affikslardan biri 超 “ *chao* ”

dir. Hozirgi kunda qo'llanilayotgan misollardan biri 超 “ *chao* ” va 超级 “ *chao ji* ” so'zlaridir, hozirgi kunga kelib bu so'z “ super, ultra ” degan ma'nolarni bildiradi.

Bu prefiks biror predmetning yuqori darajada ekanligini bildiradi. Bu prefix bilan so'zning me'yordan ortiqligini bilish mumkin. Bu prefiks nafaqat, ilm va texnika sohasida qo'llaniladi, balki umumtalab so'zlarda ham qo'llaniladi.

超人 *Chao ren* – Superman;

超级怒人 *Chao ji nu ren* – Super women;

超级儿童 *Chao ji er tong* – Super bola;

超级富翁 *Chao ji fu weng* – Super boy;

超级俱乐部 *Chao ji ju le bu* – Super klub;

超级明星 *Chao ji ming xing* – Super yulduz;

超级市场 *Chao ji shi chang* – Super market;

超 *Super* prefiksi qo'llanilish doirasi doimo kengayib boradi.

Tayvan tilida o'zlashgan soz'lar. Agar Tayvan hududida o'zlashgan so'zlar haqida gapiradigan bo'lsak, ularda fonetik o'zlashgan so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

三明治 *San ming zhi* – Sendvich;

Fonetik o'zlashgan 派 *Pai* so'zi pirog degan ma'noni bildiradi ya'ni 苹果牌 *ping guo pai* – olmalı pirog.

Lekin Tayvan tilida og'zaki nutqda ham o'zlashgan so'zlar mavjud :

O.K. so'zi o'rniga 好的 *hao de* – “ yaxshi ”

Yes so'zi o'rniga 是的 *shi de* – “ *ha* ”

Mister so'zi o'rniga 先生 *xian sheng* – “ janob ”

巴 *Ba* komponenti ingliz-amerika so'zlaridan o'tgan - *bar* so'zi o'rnida qo'llanilib, Tayvan tilida semantik – fonetik kalkalarni ifodalaydi.

酒巴 *Jiu ba* – bar;

酒吧间 *Jiu ba jian* – bar;

酒巴 *Jiu ba* so'zi Tayvan tilida kichkina restoran deb tarjima qilinib, uning sinonimlari qilib 酒店 *Jiu dian*, 酒家 *jiu jia* so'zlari ishlatiladi.

巴 *Ba* komponentlari boshqa so'zlar bilan birlashib, yangi ma'noli so'zlarni hosil qiladi.

巴怒 *Ba nu*, 巴怒浪 *ba nu lang* – Bar xizmatchisi;

吧台 *Ba tai* – Bar ustuni; 酒吧间老板 *Jiu ba jian lao ban* – Barmen;

Xulosa

Men ushbu kurs ishini tahlil qilib o'rganishda quyidagi xulosalarga keldim :

1.O'zlashtirish – o'zaro ta'sir, aloqa natijasi sifatida bir til unsurlarining boshqa tilga o'tishi tushuniladi. Bir tilning ikkinchi tilga ta'sir etishi, asosan, fonetika yoki grammatika emas, balki aynan leksikada yaqqol ko'rinadi. Ijtimoiy – siyosiy va diplomatik terminlarning o'zlashtirishda, fonetik ham semantik usulidan ham foydalaniladi.

2.Semantik kalka – o'zga tilga oid so'z bildiradigan ma'noni o'zlashtirish natijasida o'z tilidagi so'zga shu ma'noni berilishi. Ya'ni bu yerda termin yok atamalar faqatgina ma'no jihatdan o'zlashishi tushuniladi.

Bu usul orqali shuni narsani ta'kidlash lozimki, ya'ni boshqa tildagi so'zni ma'lum tilga o'zlashtirganda uning berayotgan ma'nosi o'zgarmagan holda boshqa tilga o'zlashishi tushuniladi.Bu usuldan,ayniqsa, diplomatik termin va iboralarni qo'llash keng tarqalgan.Chunki bunda so'zning berayotgan ma'nosi o'zgarmagan holda o'zga tilga qabul qilinadi.

3.Fonetik o'zlashmalarning xitoy tiliga kirib borishining cheklanganligining sababi xitoy tilidagi so'zlarni ko'p qismi ikki bo'g'indan iborat ekanligidir.Ya'ni ko'p bo'g'inli so'zlar xitoy tilida nisbatan kam uchraydi, shu sababli ko'p bo'g'inli so'zlar xitoy tilida nisbatan kam uchraydi, shu sababli ko'p bo'g'inli chet til so'zlari xitoy so'zining tabiatiga mos kelmaydi va qabul qilinishi qiyin kechadi.

Yuqorida fonetik usulda ko'p hollarda odatiy hayotimizdagi so'zlar qo'llanilishini ko'rdik.Chunki fonetik usul orqali o'zlashgan so'zlar bu nutqdagi g'alazlik va tushunmovchiliklarni oldini olishga harakat qilinadi.

Lekin chet davlatlarning nomlarining ham fonetik usulda o'zlashtirilishi ham o'zga davlatga bo'lgan hurmat va e'tiborni bildiradi.Chunki boshqa davlatlarning nomini biror o'zga davlat tiliga o'zlashtirishda ularni berayotgan nomi e'tiborga olinadi, lekin u davlat nomini ma'nosi bilan tarjima qila olish imkoni bo'lmasa, unda fonetik usulda o'zga tilga o'zlashtiriladi.Kam hollarda davlatlarning berayotgan ma'nosi orqali o'zga davlat tiliga o'zlashtiriladi.Yana biror davlatning berayotgan ma'nosi ham unga qo'shimcha ta'rif berish orqali, uni ma'nosini yanada boyitadi.Masalan: Xitoy tilida 日本 *Ri ben* – Yaponiya deb ataladi.Uning tarjimasida esa kun chiqar mamlakat degan ma'noni bildiradi.O'zbek tili bilan solishtiriladigan bo'lsak, xitoy tiliga o'xshash taraflari bor.Chunki o'zbek tilida Yaponiya deb

nomlashdan tashqari badiiy tasvir vositalaridan foydalangan holda, “kun chiqar mamlakat” deb ham atash mumkin.

Fonetik usulda o'zlashtirilgan so'zlar soni xitoy tilida unchalik ko'p miqdorni tashkil etmasada, lekin ularning qo'llanilish doirasi keng.

4.O'zbek tilida o'zlashtirish usuli,asosan, ikki usul bilan bo'ladi, so'z aynan olinadi va kalkalab olinadi. So'z aynan olinganda siyosiy atama va terminlar aynan fonetik talaffuzi o'zgarmasdan, qanday bo'lsa shundayligicha o'zlashtirib olinadi. Kalkalab o'zlashtirishda esa xitoy tilining semantik kalka usuliga o'xshab, so'zning o'zi emas, balki uning ma'nosi o'zlashtiriladi.

O'zbek tilida siyosiy terminlarning o'zlashtirilishining sabablaridan biri, o'zbek tiliga rus tilidan ko'p so'zlarng kirib kelganligi va undan ijtimoiy hayotta ko'p foydalanishdir.Masalan: gazeta, vokzal, telivizor va boshqalardir.Bu esa bizga ko'p chet el so'zlarining anglatayotgan ma'nosi yot emasligidir.Shuning uchun o'zbek tilida siyosiy termin va atamalar fonetik usul orqali o'zlashtiriladi.

5.Kurs ishimning fonetik usul orqali o'zlashgan so'zlar qismida davlatlarning nomlanishini fonetik usulda o'zlashtirilishini ko'rdik.Xity tilida deyarli barcha chet el davlatlari fonetik usulda o'zlashtirilganakan.

6.Shi You weining “Xitoy tiliga o'zlashgan so'zlar” kitobida xitoy tiliga o'zlashgan so'zlarning soni haqida ma'lumotlar berilib o'tilganligini bilib oldim va yana bir xulosaga keldim.Xulosam shuki, xitoy tili boshqa tillar singari ko'p so'zlarni o'zining tiliga qabul qilmasakan va bu orqali o'zlashma so'zlarning aksariyati yangi texnologiya va zamon rivojlanishi orqali qabul qilinishini tushundim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Toshkent., 2010.
- 2.Saodat Nosirova “Xitoy tilining ijtimoiy-siyosiy va diplomatik terminologiyasi” –T.: “yangi asr avlodi” 2011.
- 3.O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 12 jildi.. 2001-2006.
- 4.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. 5 jldi. T., 2006-2008.
- 5.Семинас А.Л. “Лексика китайского языка”. Москва 2005
- 6.Karimov.I.A. Ta’lim to’g’risidagi qarori.
- 7.Xin mu biao darsligi.1-2- 3-nashrlari.
- 8.www.wenku.baidu.com
- 9.www.ru.wikipedia.org
- 10.www.chinaembassy.uz